

MUVASHSHAHGA OID BA'ZI MULOHAZALAR

Arofatoy Muydinova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
O'zbek abiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada muvashshah she'rlarga oid ba'zi mulohazalar haqida so'z boradi. Muvashshah o'zbek mumtoz she'riyatida keng tarqalgan she'riy shakllardandir. Muvashshahlar shoirlar adabiy-estetik olamini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ularni ilmiy asosda o'rganish adabiyot tarixining qorong'i jihatlarini yoritishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: she'r, shoir, janr, bayt, misra, muvashshah, muammo, tavshih, lafziy san'at, qit'a, ruboiy, muammo, g'azal, musammat, mustazod.

ABSTRACT

The article talks about some comments about muvashshah poems. Muvashshah is one of the most common poetic forms in Uzbek classical poetry. Muvashshahs are important in studying the literary and aesthetic world of poets. Studying them on a scientific basis serves to a certain extent in illuminating the dark aspects of the history of literature.

Key words: poem, poet, verse, muvashshah, problem, tavshih, verbal art, rubai, problem, ghazal, musammat, mustazad.

АННОТАЦИЯ

В статье говорится о некоторых отзывах о стихах мувашиаха. Мувашиах – одна из самых распространенных поэтических форм в узбекской классической поэзии. Мувашиахи имеют важное значение в изучении литературно-эстетического мира поэтов. Изучение их на научной основе служит в известной степени освещению темных сторон истории литературы.

Ключевые слова: поэма, поэт, стих, мувашиах, проблема, тавших, словесное искусство, рубаи, проблема, газель, мусаммат, мустазад.

KIRISH

Ma'lumki, o'zbek she'riyati xilma-xil lirik janr va shakllarga boy. Ularning har biri shakl va mazmundagi o'ziga xosligi, tabiati va boshqa ko'pgina qirralari bilan o'zaro farqlanadi va mazmun-mohiyati bilan alohida badiiyat hodisasi hisoblanadi. Shu jumladan muvashshah she'rlar ham shunday lirik asarlar sirasidandir.

Muvashshah arabcha “vashshah” – “kamar”, “belbog‘ich” so‘zidan olingan bo‘lib, ma‘nosi “bo‘yni bog‘langan” demakdir¹. Tavshih (arabcha – “bezamoq”, “ziynatlamog‘”) lafziy san‘ati asosida yaratiladigan muvashshah she‘rning har bir misra, bayt yoxud bandining (ba‘zan esa taqte‘lar chegarasidagi) boshlanish harflaridan biror narsa yoki shaxsning nomi kelib chiqadi. Muvashshahlar qit‘a, ruboiy, muammo, g‘azal, musammat, mustazod kabi turli janrlar shakllarida yaratilgan.

Muvashshahning o‘ziga xos xususiyatlari, unga doir munozaralarga oydinlik kiritgani jihatidan Maqsud Shayxzoda, Aziz Qayumov, Sharif Yusupov, To‘xta Boboyev, Anvar Hojiahmedov, Qo‘ldosh Pardayev singari olimlarning tadqiqotlari ahamiyatlidir. Jumladan, akademik Aziz Qayumov quyidagicha fikr bildirgan: “Muvashshah-g‘azalda keltirilgan sifatlashlar, shoirona tasvirlar ko‘proq Sharq adabiyotiga xos an‘anaviy xarakterga ega. Muvashshah shoir mahoratining bir namoyishi”². Haqiqatan ham, muvashshah shoirdan juda katta mahorat talab qiladi, chunki keltirib chiqarish ko‘zda tutilgan ism misra yoki baytni ma‘lum bir harf bilan boshlashni talab etadi. Bu esa, misra yoki baytni mazmun ifodasi uchun eng maqbul so‘z bilan emas, chiqariladigan ismga mos so‘z bilan boshlashni taqozo qiladi. Shunday ekan, muvashshah yuksak mahorat va did bilan yaratilmasa, she‘rning badiiy saviyasi tushib ketishi ham mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Muvashshah haqida XI asrda yaratilgan adabiy manbalarda ba‘zi ma‘lumotlar uchraydi. Jumladan, forsiy adabiyotda muvashshahga oid ilk ma‘lumotlar Umar Roduyoniyning (XI asr) “Tarjumonu-l-balog‘a” asarida berilgan. Muallif muvashshahning lug‘aviy ma‘nosini izohlab, “...bunda shoir qasida baytlaridagi avvalgi harflarni olib, she‘rning asosini paydo qilur. Ajratilgan harflar birlashtirilsa, ma‘lum bir so‘z hosil bo‘ladi...”³ – deya ma‘lumot beradi va fikrini dalillash uchun shoir Muvaqqariy qalamiga mansub forsiyda bitilgan baytlar toq misralarining birinchi harflaridan “Daryo” so‘zi kelib chiqadigan muvashshahni misol qilib keltiradi.

Turkiy adabiyotning yetuk shoiri va olimi Shayx Ahmad Taroziyning (XV asr) turkiy tilda bitilgan “Fununu-l-balog‘a” (1436-1437) asarida esa muvashshah maxsus san‘at sifatida tilga olinadi: “...she‘rning avvalg‘i harflarini terib olsalar yo o‘rtadagi harflarini olib jam qilsalar... (ism) bo‘lur. She‘rning bir misrasi harflarida ham ism

¹ Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – Москва: Русский язык, 1989. – С.890.

² Қаюмов А. Шеърят жилолари. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – Б. 45.

³ Болтабоев Х. Шарқ мумтоз поэтикаси манбалари. Биринчи китоб. Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 247.

muzayyan bo‘lishi mumkin”, – deb yozadi va “Mirak” ismiga bitilgan muvashshahni namuna sifatida keltiradi:

Mehringni tutar jon ichinda ko‘nglum, –
Andog‘ki javohir erur ul kon arosinda.

Yuzung g‘amidin har kecha qon yig‘lamag‘imdin
To subh uzarmen, sanam, qon arosinda.

Ranjur bo‘lub kelmadi mushk o‘zga Xo‘tandin.
Zulfung sifatidin yozg‘oli devon arosinda.

Gar teksta o‘qung xasta yurakinga, – ko‘yormen,
Kuygan Mirak – o‘q bu dili biryon arosinda⁴.

Muvashshahning olim aytganidek, agar “she’rning bir misrasi harflarida ism muzayyan bo‘lishi mumkin bo‘lgan” turi mavjud bo‘lsa, buni Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida Farhodga ism berilishida uchratish mumkin:

Anga farzona Farhod ism qo‘ydi,
Hurufi ma‘xazin besh qism qo‘ydi:

Firoqu rashku hajru oh ila dard,
Biror harf ibtidodin aylabon fard.

Borin ustodi ishq etgach murakkab,
Tarakkubdin bu ism o‘ldi murattab”⁵.

Buni garchi “Fununu-l-balog‘a”dagi ma‘lumotga tayanib muvashshah deb baholasak-da, biroq bu Sharq poetikasida *hurufi dalolat* deb nomlanadigan harflarga mazmun bag‘ishlash san‘ati⁶ ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Bunda shoir “Firoq”, “Rashk”, “Hajr”, “Oh”, “Dard” (arab yozuvida qisqa “a” harfi ifoda etilmaydi) so‘zlarining birinchi harflaridan “Farhod” ismini hosil qiladi va mazkur harflarda uning qismatini aks ettiradi. Shuningdek, she’riyat ilmiga oid biror manbada bu she’riy san‘at asosida muvashshah yaratish mumkinligi haqida ma‘lumot uchramaydi. Bizningcha, “she’rning bir misrasi harflarida” deyilganda misralarning birinchi harflari nazarda tutilgan bo‘lsa kerak, chunki asarda “Munung bir misraining harflarini olsalar, “Muhammad” bo‘lur”, – deya namuna sifatida keltirgan muvashshahi odatdagi muvashshah shaklida:

Ma’shuqa dilam ba tiri anduh naxust;
Hayron shudamu kasam namegirad dast,
Miskin dili man ba poyi mehnat shuda,

⁴ Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға. – Т.: Хази́на, 1996. – Б.125.

⁵ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 8-том. Хамса. Фарход ва Ширин. – Т.: Фан, 1991. – Б.70.

⁶ Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Т.: Navoiy universiteti, 2019. – Б.119-120.

Dasti g‘ami do‘st pushti man xirad shikast⁷.

Shuningdek, ba‘zi manbalarda muvashshah aslida muammo zaminida paydo bo‘lgan⁸, degan fikrlar ham mavjud. Aniqlik kiritish maqsadida Alisher Navoiyning muammoni yechish qonun-qoidalariga bag‘ishlangan “Mufradot” asari ko‘zdan kechirilsa, unda muammo amallari 3 qismga ajratilgan va birinchi qism – *a‘moli tahsiliyning intiqod* (saralash) degan turiga ko‘ra so‘zning ba‘zi harflarini olish orqali muammo hosil qilinishi aytiladi va “Odam” ismiga bitilgan muammo misol qilib keltiriladi:

Dili moro chu xohu boz justash

Z - ohu dardu mehnat cho‘ naxistash.

(Ma‘nosi:

Dilimizni yana axtarmoqchi bo‘lsang,

Oh, dard, mehnatdan birinchisini qidir)

Bu muammoni yechish uchun “oh”, “dard”, “mehnat” so‘zlarining bosh harflari olinsa, “Odam” ismi kelib chiqadi. Shuningdek, asarda “Malik” ismi kelib chiqadigan yana bir muammo ham keltirilgan⁹. Navoiy muammoning bu turini “Farhod va Shirin” dostonida Farhodga ism qo‘yish bobida ham qo‘llagan:

Jamolidin ko‘runch *farri shohi,*

Bu fardin yorudi mah to bamohi.

Qo‘yub yuz *himmat-u iqbol-u davlat,*

Hamul far soyasidin topti ziynat.

Bunda “farri shohi”ning soyasiga (davomiga) himmat, iqbol va davlat so‘zlarining yuzi, ya‘ni bosh harflari qo‘shilsa, Farhod ismi kelib chiqadi.

Shoira Uvaysiyning “Jahon” ismi yashiringan quyidagi muammosini (manbalarda muvashshahi muammo deb ham yuritiladi¹⁰) ham xuddi shu usulda yaratilgan muammolar sirasiga kiritish mumkin:

“Jim-u, ho-yu, alifi nunkim darding yuki birla

Dilida nuqtasi, bag‘rida dog‘i loyiqi xunman”.

Baytning birinchi misrasidagi (jim, alif, ho, nun) jahon bo‘lsa, ikkinchi misrasidagi “Dilida nuqtasi bag‘rimda dog‘i” so‘zlari “n” harfi bo‘lib, mazmun e‘tibori bilan yurak dog‘ini, ko‘ngul g‘ussalarini ifodalab kelgan. Bu muammoda jim, alif, ho, nun harflari kitobat san‘ati tarzida ham mahorat bilan qo‘llanilgan¹¹.

⁷ Шайх Ахмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға. – Т.: Хази́на, 1996. – Б.125.

⁸ Бобоев Т, Бобоева З. Бадиий санъатлар. – Т.: 1999. – Б.66.

⁹ Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т.: 2018. – Б.201.

¹⁰ Аширбоев С., Азимов И., Раҳматов., Ғозиев А. Эски ўзбек тили ва ёзуви практикуми. –Т.: Ижод нашриёт уйи, 2006.– Б.129.

¹¹ Орзибеков. Р. Ўзбек адабиёти тарихи. XVII-XIX (I ярми) асрлар. – Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси, 2006. – Б.207.

Xullas, muvashshah va muammoda, ko‘pincha, ismni berkitish hamda berkitilgan ismni topish usullarining berilishi jihatidan o‘xshashlik kuzatilsa-da, lekin barcha muvashshahlarda ham ism yashirilganiga maxsus ishoralar berilmaydi. Shuningdek, shakl va mazmun jihatidan ham farqlanishiga ko‘ra ular alohida she‘rlar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 8-том. Хамса. Фарҳод ва Ширин. – Т.: Фан, 1991. – Б.70.
2. Аширбоев С., Азимов И., Раҳматов., Ғозиев А. Эски ўзбек тили ва ёзуви практикуми. –Т.: Ижод нашриёт уйи, 2006.– Б.129.
3. Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – Москва: Русский язык, 1989. – С.890.
4. Бобоев Т, Бобоева З. Бадиий санъатлар. – Т.: 1999. – Б.66.
5. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси манбалари. Биринчи китоб. Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 247.
6. Орзибеков. Р. Ўзбек адабиёти тарихи. XVII-XIX (I ярми) асрлар. – Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси, 2006. – Б.207.
7. Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т.: 2018. – Б.201.
8. Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Т.: Navoiy universiteti, 2019. – Б.119-120.
9. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға. – Т.: Хазина, 1996. – Б.125.
10. Қаямов А. Шеърят жилолари. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – Б. 45.